

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(52 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(52 KB\)](#)

## Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha davlat ro'yxatiga olingan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining faoliyati to'g'risida.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida investitsion faoliyatni yuritish bo'yicha qabul qilingan 50 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi, "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi, "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi Qonunlarni aytib o'tish lozim. 2016 yil davomida respublika bo'yicha jami 10 ta yangidan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar davlat ro'yxatiga olingan bulib, 2017 yilning 6 oyi davomida 4 ta korxonalar ro'yhatga olindi. Natijada, respublikaning Nukus shahri va barcha tumanlarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ro'yxatga olingan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining asosiy ulushi Nukus shahri (18 ta), Qung'iroq (8 ta) va Xujayli (7 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

Bular 3 mingga yaqin kishi ish bilan ta'minlangan bulib, 2016 yilda mazkur korxonalar tomonidan 1 970 mlrd. so'mdan ortiq mahsulotlar ishlab chiqarilib xizmatlar ko'rsatilgan. Shundan amalga oshirilgan eksport hajmi 373,7 mln. dollarni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar qatorida polietilen va polipropilen granularlar, qizilmiya ildizi ekstrakti, ip kalava, natriy sul'fati, artemiya tsistalari va avtomashinalarga yoqilg'i gaz qo'yish, tibbiyot, mehmonxona xizmatlari ko'rsatilganligini aytib o'tish lozim.

Mazkur korxonalar dunyoning 15 dan ortiq chet el davlatlari investitsiyalari ishtirokida tashkil etilgan bulib, Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Qozog'iston va boshqa davlatlar investitsiyalari ishtirokida tashkil etilgan. Masalan Qo'ng'iroq tumanida ishga tushirilgan polietilen va polipropilen granularlarini ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekiston va Janubiy Koreya investitsiyalari ishtirokidagi "Uz-Kor Gas Chemical" qo'shma korxonasi, Amudaryo tumanidagi ish kalava ishlab chiqaruvchi "Amudaryotex" Buyuk Britaniya chet el korxonalarini.

Ko'rib chiqildi:



- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)